



TARBIYA BUYUK NE'MAT HAYOTIDAGI O'RNI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

Nurulloeva Manija Qurbonovna

manijanurulloeva29@gmail.com

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

Abdullayeva Nargiza Izzatulloevna

fazliddinshamsiddinov72@gmail.com

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

Ramazonova Aziza Amonullaevna

aramazonova51@gmail.com

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3 kurs talabasi

Toshova Shahlo Qurbonmurot qizi

shaxlotoshova499@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada bir oila, balki yer sayyorasidagi har bir mamlakatning gullab-yashnashi, undagi yashovchi xalqlarning farog'ati ham shak-shubhasiz ta'lim va tarbiya tufayli ekanligini, hayot olamida, shubhasiz, tarbiya singari insoniyatga ta'sirli narsa yo'qligi va shu sababdan qadimdan mashhur donishmandlar tarbiya to'g'risida qimmatli fikrlarni yozib qoldirganligi haqida keltirilgan.

Kalid so'zlar: Tarbiya, inson, vazifa, jamiyat, ajdod, shaxs, axloq, g'oya, bolalar, ta'lim, ma'naviyat, fazilat, odat, alloma.

Аннотация: В данной статье утверждается, что процветание семьи, как и каждой страны на планете Земля, и благополучие живущих в ней людей, несомненно, обусловлены образованием и воспитанием, что в мире жизни, несомненно, нет ничего более влиятельного для человечества, чем воспитание, и по этой причине известные мудрецы с древних времен написали ценные мысли о воспитании



Ключевые слова: Образование, человек, задача, общество, предок, личность, мораль, идея, дети, воспитание, духовность, добродетель, привычка, ученый.

Abstract: This article states that the prosperity of a family, and indeed of every country on planet Earth, and the well-being of the people living in it, is undoubtedly due to education and upbringing, that in the world of life, there is undoubtedly nothing more influential on humanity than upbringing, and for this reason, famous sages from ancient times have written valuable thoughts about upbringing.

Keywords: Education, human, task, society, ancestor, personality, morality, idea, children, education, spirituality, virtue, habit, scholar.

Yoshlar tarbiyasi, ularni ilimli va har tomonlama etuk qilib voyaga etkazish barcha zamonlarda muhim vazifa hisoblangan. Mutafakkirlarimiz tomonidan yozib qoldirilgan bunday nodir asarlar o'sib kelayotgan yosh avlodni salbiy illatlardan asrab, axloqan pok, haqiqiy inson bo'lib etishishlariga undagan. Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yig'indisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyat hisoblanadi. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga o'tadi.

Ajdodlarimiz asrlar davomida sevib mutolaa qilgan “Pandnoma”, “Siyosatnoma”, “Qobusnoma”, “Axloqi muhsiniy”, “Axloqi jaloliy”, “Axloqi nosiriy”, “Qonuni hikmat”, “Nigoriston”, “Bahr al-ulum”, “Kachko'li sultoni”, “Jovidoni xirad”, “Bistu se hikmat”, “Hikoyoti dilpisand”, “Odob as-solihin”, “Turkiy “Guliston” yoxud axloq” singari asarlar shular jumlasidandir. Ushbu nodir asarlarda avval axloq-tarbiyaga oid biror so'z va tushunchani izohlab, keyin unga o'quvchi amal qilish uchun naqliy va axloqiy dalillar keltiradi. Umuman ularning mazmun-mundariyasi, ularda ilgari surilgan ilg'or g'oyalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Tarbiya —



shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yig'indisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyat hisoblanadi. Tarbiasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga o'tadi. Jamiyatdagi, ijtimoiy hayotdagi talablarga javob beruvchi shaxsni shakllantirish tarbiyaning mazmunini tashkil etadi. Talablar bilan birga boshqa insonlarni hurmat qilish o'zgalar fikrini tinglash, insonparvarlik va ilm olish, ilmga intilish tarbiyaning muhim tamoyillaridandir.

Yana insonda e'tiqod, hayotga nisbatan qarashlar, o'zini-o'zi anglashi, keng fikr yuritishi o'zini va boshqalarni fikri, g'oyalari, qarashlarini baholashi ham tarbiyaning muhim unsurlaridan biridir. Tarbiya pedagogikaning ham asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Pedagogikada tarbiya ikki manoda farqlanadi: keng ma'nodagi tarbiya va tor ma'nodagi tarbiya. Keng manoda tarbiya- shaxsga jamiyatning ta'sir etishi, ijtimoiy hodisa sifatida qoraladi. Ya'ni, shaxsning jamiyat talablariga javob berishiga va jamiyatning ta'siri natijasida shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan tarbiya. Tor ma'nodagi tarbiya-pedagogik jarayon sharoitida ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati hisoblanadi. Bunda, tarbiya malum bir ta'limni o'rganish maqsadida tashkil etiladi va pedagog va o'quvchining faoliyat jarayoni tushuniladi. Bundan bilinadiki, jamiyat uchun komil, ilimli, yetuk, barkamol insonni shakllantirishdan iboratdir tarbiyaning maqsadi. Shaxsni kamol toptirishdagi asosiy tushuncha ham bu tarbiyadir.

Xitoy donishmandi Syun-Szi "Chaqaloqlar hamma erda bir xil yig'lashadi. Katta bo'lganlarida esa turli qiliqlar qilishadi. Bu – tarbiyaning oqibati", deb yozgan edi. Olmon faylasufi Immanuel Kant o'z asarida "Inson faqat tarbiya orqali inson bo'ladi, uning qandayligi tarbiyaning natijasidir", degan fikrni bildiradi. Tarbiya borasida Sa'diy Sheroziy shunday misralarni bitgan:



Minbarning poyida tursa ham eshak,
Tarbiya yuqmaydi, bo'lmaydi odam.
Tarbiya ko'rmayin ulg'aysa kishi.
Eshak bo'lib qolur yuzga kirsam ham.

Tarbiyaga e'tiborsizlikning oqibati nimalarga olib kelishini o'z vaqtida Abdulla Avloniy kuyunib, “Bugungi kunda jamiyatimizning yuzini qora qiluvchi pastkashlar, yomonlar, beboshlar, o'g'rilar, giyohvandlar va nashavandlar... kecha tarbiyalariga e'tibor berilmagan bolalardir”, deb yozib qoldiradi Adabiyotshunos olim Abdurauf Fitrat “Xalqning harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi, zaif bo'lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e'tibordan qolishi, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi bolalikdan o'z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog'liq. Bolalar axloqiy tarbiyani muhitdan oladilar, boshqacha qilib aytganda, bolalar suvga o'xshaydi, suv idishning shaklini olganidek, bolalar ham muhitning odob-axloqini qabul qiladilar”, deydi.

Alixonto'ra Sog'unliy tarbiya xususida shunday yozadi: “Yolg'iz insonga emas, barcha jonlik mavjudotlarda ta'lim-tarbiya ta'siri ko'z oldimizda ko'rilib, buning natijalari butun dunyoga tarqalib turmoqda. O'qitish-o'rgatish buyon tursin, suhbat o'zi ham, suhbatdoshlarga o't bilan suvdek tez o'tadi. Shuning uchun ham har kimga, suhbat yo'ldoshlariga qarab baho beriladi”.

Darhaqiqat, nafaqat bir oila, balki er sayyorasidagi har bir mamlakatning gullab-yashnashi, undagi yashovchi xalqlarning farog'ati ham shak-shubhasiz ta'lim va tarbiya tufaylidir. Ma'lumki, ulug' mutafakkir Abu Ali ibn Sino merosida ilm va axloq uyg'unligi masalasi alohida o'rin tutadi. Allomaning “Tadbiri manzil” risolasida tarbiya masalasi ko'proq tahlil etilgan. Xususan, “Tadbiri manzil”da inson tayyor shaxsiy sifat, odat va ko'nikmalar bilan tug'ilmasligi qayd etiladi. Bunday xususiyatlar odamning ijtimoiy hayotida sekin-asta shaxsiy va o'zgalar tajribasi, avvalgi ajdodlar an'analari, ta'lim-tarbiya o'zgalarning ta'siri ostida shakllanadi. SHaxs kamolotida ijobiy fazilat va odatlarni qaror toptirish qanchalik qiyin va mushkul bo'lsa, ma'naviy qiyofaga yopishib olgan salbiy jihat va odatlardan xalos bo'lish shunchalik murakkabdir.



Alloma nazdida bolalar tarbiyasini barvaqt boshlagan ma'qul: “Bola tana bo'g'inlari barqaror bo'lgan, uning tili to'g'ri, ravon gapirish va quloqlari tinglash va o'zgalar so'zlarini qabul qilish hamda o'rganilayotgan narsaga (tabiiy) moyillik paytdan boshlab uni ilmlar va axloq-odob (asoslari)ga o'rgatib borish lozim”.

Yuqoridagilardan shu narsa ma'lum bo'lmoqdaki, hamma vaqt tarbiyada butun ish nafaqat ota-onalarga, balki go'zal axloq va ilmiy salohiyatga ega bo'lgan ustoz-muallimlarning sa'y-harakatiga ham bevosita bog'liq. Bunda ishni tashkil qilish shakllarinigina emas, ayni paytda, ishlashni to'g'ri yo'lga qo'yish shartlarini bilish ham muhimdir.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI

1. M. Xayrullayev, B. To'xliyev, Sh. Qurbonov, X. Masudov, M. Qurbonov
PEDAGOGIKA TARIXI, 2004 yil.
2. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43).
3. Холиқова П. А. Қ. МИЛЛИЙ-МАЪНАВИЙ МЕРОСНИ ЭЪЗОЗЛАШ ВА УНИНГ МАЗМУН МОҲИЯТИНИ ЁШЛАР ОНГИГА СИНГДИРИШ //Academicresearch in educational sciences. – 2023. – Т. 5. – №. NUU Conference 2. – С. 842-847.
4. Mahmudova K., Kholikova P. NEW APPROACHES TO TEACHING ENGLISH: GIVE THE PUPILS WHAT THEY WANT! //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2023. – Т. 15. – С. 354-359.
5. Khalikova P. THE FORMATION OF SPIRITUAL AND MORAL VIRTUES IN THE EDUCATION OF A PERFECT HUMAN BEING IN THE WORKS OF ORIENTAL THINKERS //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. B5. – С. 355-358.
6. SAMIYEVA, S. (2023). TABOO AND EUPHEMISM IN UZBEK AND TAJIK LANGUAGES. World Bulletin of Social Sciences, 27, 64-68.



7. Oripovna, S. S. (2022). Issues of spiritual and moral education of youth in the works of abdurahmon Jami.
8. Samiyeva, S. (2021). ISSUES OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF YOUTH IN THE WORKS OF ABDURAHMON JAMI. InterConf.
9. Samiyeva, S. O. (2024). EUPHEMISMS AND THEIR RELATIONSHIP WITH SYNONYMS (in the example of Uzbek and Tajik languages). World of Scientific news in Science, 2(2), 859-865.
10. Oripovna, S. S. (2024). Emergence Factors Of Dysphemic And Euphemical Dictionaries In Tajik And Uzbek Languages. Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments, 2(2), 14-21.
11. Samiyeva, S. O. (2020). SAADI SHERAZI'S LIFE ACTIVITIES AND MORAL VIEWS. Theoretical & Applied Science, (7), 410-413.
12. Samiyeva, S. O. (2024). CONTENT AND PRINCIPLES OF EDUCATIONAL WORK IN THE CLASSROOM AND OUTSIDE THE CLASSROOM IN PRIMARY GRADES. THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD, 3(2), 85-90.
13. Хуррамов, Х. М., & Панджиев, Д. М. (2018). В ПЕРВОМ КЛАССЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ РИСУНКОВ ПРИ ИЗГОТОВЛЕНИИ РЕЧИ ШКОЛЬНИКАМИ ЧЕРЕЗ СКАЗКИ. In Лучшая студенческая статья 2018 (pp. 119-123).